

## TO'LIQ OLIB QO'YILADIGAN PROTEZLARNI KONSTRUKSIYASINI TAQQOSLASH

**Ruziyeva Sitora Saparovna**

*Toshkent tibbiyot akademiyasi "Umumiy stomatologiya va yuz-jag' jarrohligi"  
kafedrası assistenti*

**KIRISH:** *Tishlari to'liq yo'qotilgan bemorlarni davolash ortopedik stomatologiyaning eng qiyin muammolaridan biri bo'lib, u hali ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. 75 yoshdan oshgan bemorlarda tishlarning to'liq yo'qligi tarqalishi 70 foizga yetishi mumkin. Ko'pincha tishlari to'liq yo'q bo'lgan bemorlarda chaynash va nutq funksiyalarining buzilishi bilan bir qatorda yuzning assimetriyasi, yuzning pastki uchdan bir qismi balandligining pasayishi, chaynov mushaklari faoliyatining buzilishi, chakka pastki jag' bo'g'imining patologiyalari va boshqalar kuzatiladi. Ayniqsa bemorlar protez taqqanlaridan so'ng unga moslashishlari qiyinligi ham stomatologiyaning muammolaridan biridir. Bunga sabab esa protezlarning yomon stabilizatsiyasidir. Protezlashdan so'ng paydo bo'ladigan asoratlardan yana biri to'liq olib qo'yiladigan protez asosida rivojlanayotgan shilliq qavat kasalliklaridir.*

**Kalit so'zlar:** *Stereognaziya, akril plastmassa, liqildoq og'iz, anketa, qolip, model.*

To'liq olib qo'yiladigan protezlarning salbiy ta'sirini kamaytirish va ularning mahkamlanishini yaxshilash uchun ko'plab turli usullar va qurilmalar taklif etilgan. Protez asosining to'qimalarga ta'sir etish usuliga ko'ra ular jarrohlik ta'siriga asoslangan usullarga, ortopedik ta'sirga asoslangan usullarga, konservativ usullarga asoslangan usullarga bo'linadi. Biroq bu usullardan foydalanish turli omillar tufayli cheklangan: past klinik samaradorlik, manipulyatsiyalarning yuqori darajada murakkabligi, to'qimalarning haddan tashqari travmatizatsiyasi, tananing umumiy holatiga cheklovlar va barqaror natijalarning yo'qligi. Shularga asoslanib bemorlarga har tomonlama mos keladigan funksional va moddiy tomondan qulay bo'lgan usullarni o'ylab topish biz uchun muhimdir.

### **Tadqiqot materiallari:**

1. Bemorlar Oksman to'liq tishsizlikning tasnifi bo'yicha bo'lindi.  
A) nazorat guruhidagi bemorlar (protez bazisi qirrasini keng hajmli bo'lmagan).  
B) Asosiy guruhdagi bemorlar (protez bazisi qirrasini keng hajmli bo'lgan).

2. Akril plastmassadan tayyorlangan protezlar.

Biz to'liq tishsiz bemorlarni 2 guruhga bo'ldik, asosiy va nazorat guruhlariga. Har bir guruhda 8 tadan bemor tanlab olindi.

### **Tadqiqot usullari:**

1. To'liq tishsiz bemorlarda klinik tekshirish usullari.
2. Nutq sinamalari
3. Stereognaziya usuli


#### 4. Bemorlarga so'rovnoma to'ldirtirish.

Bemorlarda klinik tekshirish usullaridan dastlab og'iz bo'shlig'i ko'rigi, shilliq qavatlar ko'rinishi, shilliq qavat beriluvchanligini tekshirdik.

Nutq sinamalarida bemorlarga til oldi, til o'rta, til orqa undoshlarini tallaffuz qildirib ko'rib, tallaffuzda to'g'ri aytilgan tovushlarni umumiy tovushlar soniga bo'lib topildi.

Stereognaziya usulida bemorlarni tekshirishda turli shakldagi geometrik shakllardan iborat bo'lgan to'plamdan foydalandik. Quyida biz foydalangan geometrik shakllar keltirilgan.

Biz bu usulda bemorlarning protezga moslashishi va psixoemotsional holatini baholash uchun foydalandik(1-rasm). Ya'ni bunda bemorga rasmda ko'rsatilgan ko'rinisdagi geometrik shakllarni o'g'iz bo'shlig'i sezgilariga amal qilgan holda aniqlashi aytib o'tildi. Bu usuldan foydalanishdan maqsad ko'pchilik bemorlar sun'iy protez taqqanlaridan so'ng ovqat ta'mini sezish, o'g'iz bo'shlig'idagi luqmani konsistensiyasini aniqlashlari qiyin bo'ladi. Shuning uchun bu usul qaysi protez shu kabi muammolarni kamroq keltirib chiqarishini aniqlashda samarali hisoblanadi.



1-rasm. Mumdan tayyorlangan geometrik shakllar.

Biz bu usulda bemorlarning protezga moslashishi va psixoemotsional holatini baholash uchun foydalandik(1-rasm). Ya'ni bunda bemorga rasmda ko'rsatilgan ko'rinisdagi geometrik shakllarni o'g'iz bo'shlig'i sezgilariga amal qilgan holda aniqlashi aytib o'tildi. Bu usuldan foydalanishdan maqsad ko'pchilik bemorlar sun'iy protez taqqanlaridan so'ng ovqat ta'mini sezish, o'g'iz bo'shlig'idagi luqmani konsistensiyasini aniqlashlari qiyin bo'ladi. Shuning uchun bu usul qaysi protez shu kabi muammolarni kamroq keltirib chiqarishini aniqlashda samarali hisoblanadi.

Bemorlarga so'rovnoma to'ldirtirishda biz dastlab tanlab olingan ikki asosiy va nazorat guruhidagi bemorlarga bir nechta savollar bilan murojaat qildik. Savollar quyidagi ko'rinishda bo'ldi.

	Ha	Yo'q	Aniq javobini bilmayman
To'liq olib qo'yiladigan protez bilan bog'liq noqulayliklar bormi?	1	7	
Sizda protezga moslashuvchanlik yetti kundan oshganmi (agar avval protez taqqan bo'lsangiz)?	1	7	
Protez ostida ovqat qoldiqlari to'planadimi?		8	
So'zlashuvda noqulayliklar mavjudmi?	1	7	
Protezingiz gapirganda bo'shashib qolish holati uchraydimi? (Yuqori jag'da)		8	
Protezingiz gapirganda bo'shashib qolish holati uchraydimi? (Pastki jag'da)	1	7	
Protez taqqaningizda ko'ngil aynish holatlari bormi?	1	7	
Kun davomida protezingizni yechasizmi?	1	7	

Keng qirrali usulda tayyorlangan protezlar an'anaviy protezga qaraganda fiksatsiya va stabilizatsiyasi, bemorlarni to'liq olib qo'yiladigan protezga moslashishi yuqoriligi usullarda 1,5 baravar oshishi tasdiqlandi.

To'liq olib qo'yiladigan protez qo'llanilganda bemorlarning moslashishi va psixoemotsional xolatini prognoz qilish uchun stereognaziya usulidan foydalanish yaxshi natija berdi.

To'liq olib qo'yiladigan protezlar bilan davolash samaradorligini aniqlash uchun fonetik usuldan foydalanish tavsiya etiladi unda asosan nutq tushunarligiga e'tibor beriladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Girón J, Kerstner E, Medeiros T, Oliveira L, Machado GM, Malfatti CF, Pranke P. Suyak regeneratsiyasi uchun biomateriallar: ortopediya va stomatologiyaga umumiy nuqtai. *Braz J Med Biol Res.* 2021 yil 14-iyun;54(9):e11055. doi: 10.1590/1414-431X2021e11055. PMID: 34133539; PMCID: PMC8208772.

2. Bucci R, Rongo R, Zunino B, Michelotti A, Bucci P, Alessandri-Bonetti G, Incerti-Parenti S, D'Antò V. Obstruktiv uyqu apnesi bo'lgan bolalarda ortopedik va funksional ortodontik davolanishning ta'siri: tizimli tahlil va meta-tahlil. *Sleep Med Rev.* 2023 Fevral;67:101730. doi: 10.1016/j.smrv.2022.101730. Epub 2022, 2 dekabr. PMID: 36525781.

3. Chen J, Xu Y, Guo W. Og'ir molar-kesuvchi gipomineralizatsiya bilan o'smirlar skeletining ochiq tishlashining kombinatsiyalangan ortopedik-ortodontik muolajalari: ish hisoboti va adabiyotlarni ko'rib chiqish. *J Clin Pediatr Dent.* 2023 yil yanvar;47(1):91-99. doi: 10.22514/jocpd.2022.017. Epub 2023 yil 3 yanvar. PMID: 36627225.

4. Alyahya A, Aldubayan A, Swennen GRJ, Al-Moraissi E. Ortognatik jarrohlikdan keyin operatsiyadan keyingi og'riqni kamaytirish uchun turli protokollarning samaradorligi: tizimli ko'rib chiqish va meta-tahlil. Br J Oral Maxillofac Surg. 2022 yil sentyabr;60(7):e1-e10. doi: 10.1016/j.bjoms.2022.03.013. Epub 2022 yil 23 aprel. PMID: 35690502.

5. Agrawal P, Ramanna PK, Arora S, Sivarajan S, Jayan A, Sangeetha KM. Endodontik davolashda gutta-percha va muhrlarni olib tashlash uchun turli xil asboblarning samaradorligini baholash: In vitro tadqiqoti. J Contemp Dent amaliyoti. 2019 yil 1-noyabr;20(11):1269-1273. PMID: 31892677.

6. Andreeva SN, Starikov NA. Ortopedicheskaya reabilitatsiya patsientov v otdelenii sovremennykh texnologii protezirovaniya FGBU NMITs «TsNIIS i ChLKh» [Markaziy stomatologiya va Surgerilo ilmiy-tadqiqot institutining Zamonaviy protezlash texnologiyalari bo'limida bemorlarni ortopedik reabilitatsiya qilish]. Stomatologiya (Mosk). 2022;101(4):19-21. rus. doi: 10.17116/stomat202210104119. PMID: 35943494.

7. Иноятлов А. Ш. и др. Особенности клинических проявлений COVID-19 в ротовой полости //Интегративная стоматология и челюстно-лицевая хирургия. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 37-39.

8. Хабилов Н. Л. и др. ТИШСИЗ ПАСТКИ ЖАҒ СУЯК ТЎҚИМАСИ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ СУЯК ИЧИ ТИШ ИМПЛАНТЛАРИГА АСОСЛАНГАН ОЛИНАДИГАН ПРОТЕЗЛАР БИЛАН ЎЗАРО ТАЪСИРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 15. – №. 2. – С. 98-101.

9. Иноятлов А. Ш. и др. Тиш қатори ва окклюзион тексликдаги ўзгаришлар ҳамда уларнинг чакка-пастки жағ бўғимига таъсири //Интегративная стоматология и челюстно-лицевая хирургия. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 40-47.

10. Сафаров М. и др. Влияние несъемных зубных протезов различной конструкции на микробиологические и иммунологические показатели полости рта //Stomatologiya. – 2014. – Т. 1. – №. 1 (55). – С. 18-23.

11. Gaffarov S., Sharipov S. ANALYSIS OF MACRO AND MICROELEMENTS IN TEETH, SALIVA, AND BLOOD OF WORKERS IN FERGANA CHEMICAL PLANT OF FURAN COMPOUNDS //European Medical, Health and Pharmaceutical Journal. – 2014. – Т. 7. – №. 2.

12. Tashpulatova K. et al. Technique for eliminating traumatic occlusion in patients using Implant-supported bridges //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020. – Т. 7. – №. 2. – С. 6189-6193.

13. Шарипов С. С. и др. ТУРЛИ МАТЕРИАЛЛАРДАН ТАЙЁРЛАНГАН ОЛИНМАЙДИГАН КЎПРИКСИМОН ТИШ ПРОТЕЗЛАРИНИНГ ОҒИЗ БЎШЛИҒИ ҲОЛАТИГА ТАЪСИРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 17. – №. 4. – С. 14-20.

14. Salomovich S. S. CHOP ETTIRILGAN MAQOLALARIGA IQTIBOS KELTIRILISHI //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 18. – №. 3. – С. 255-276.

15. Шарипов С. С., Саидов А. А., Гаффаров С. А. Кимёвий бўёқларнинг ишчилари оғиз бўшлиғига салбий таъсирини тажрибада асослаш ва даволашнинг самарали усуллари //Ўзбекистон Врачлар Ассоциацияси Бюллетени. – 2014. – Т. 2. – №. 2. – С. 50-53.

16. Шарипов С. Мақолаларга иқтибос келтирилишда халқаро шаклнинг аҳамияти //Молодые ученые. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 10-23.

17. Salomovich S. S. et al. Assessment of Changes in the Microbiological Parameters of the Oral Fluid in Patients Who Underwent Sovid-19 with Complete Edentulism before and after Prosthetics //NeuroQuantology. – 2022. – С. 6734-6739.

18. Гаффаров С. А., Сафаров М. Т., Шарипов С. С. Қаннын интегральді керсеткіштеріне алынбайтын кепірлі протездердің эсер етуі //Материал Международного Конгрессса стоматологов. – 2014. – С. 14-16.

19. Клемин В. А. и др. ИММУНОЛОГИЧЕСКИЕ ПРЕДИКТОРЫ ПРОТЕЗНОГО СТОМАТИТА АЛЛЕРГИЧЕСКОГО ГЕНЕЗА //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 184-192.

20. Salomovich S. S. Citation for published articles //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 18. – №. 3. – С. 255-276.